Tadqiqot miqdoriy empirik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi mintaqalari kesimida kadrlar tayyorlash sifati darajasini baholash hamda ko'p o'lchovli klaster tahlili yondashuvi asosida mintaqalarni tipologiyalashdan iborat.

Metodologik arxitektura quyidagi ketma-ketlikda shakllantirildi: "kadrlar tayyorlash sifati" tushunchasini konseptual asoslash, mintaqaviy statistik ko'rsatkichlarni tanlash, Min–Max normallashtirish orqali o'lchov birliklarini birxillashtirish, integrallashgan kompozit indeksni shakllantirish hamda ko'p o'lchovli klaster tahlili yordamida mintaqalarni guruhlash.

Tahlil birligi sifatida O'zbekiston Respublikasining mintaqalari qabul qilindi.

Mazkur tadqiqotda kadrlar tayyorlash sifati oliy ta'lim tizimining mintaqaviy kesimda inson kapitalini shakllantirish salohiyatini ifodalovchi ko'p komponentli integrallashgan konstrukt sifatida talqin etiladi. Ta'lim iqtisodiyoti va inson kapitali nazariyasiga ko'ra, sifat faqat yakuniy natijalar bilan emas, balki resurs ta'minoti va ta'lim jarayonining samaradorligi bilan ham belgilanadi [6, 12].

Shuningdek, klasterlash natijalarining barqarorligini tekshirish maqsadida Silhouette koeffitsienti hisoblandi. Silhouette koeffitsienti klasterlash sifatini baholash va optimal klaster sonini aniqlashda keng qo'llaniladigan ichki validatsiya mezoni hisoblanadi [19, 21]. U har bir obyektning o'z klasteriga moslik darajasi hamda boshqa klasterlardan ajralish darajasini bir vaqtning o'zida baholaydi.

Silhouette koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$s(i) = \frac{b(i) - a(i)}{\max \{a(i), b(i)\}}$$

Bu yerda:

- $a(i)$ — i -obyektning o'z klasteri ichidagi ichki yaqinlik (cohesion) darajasini ifodalovchi o'rtacha masofa;
- $b(i)$ — i -obyektning eng yaqin boshqa klasterga nisbatan ajralish (separation) darajasini ifodalovchi o'rtacha masofa. Silhouette qiymati -1 dan 1 gacha oraliqda o'zgaradi va quyidagicha talqin qilinadi (1-jadval).

1-jadval
Silhouette koeffitsienti qiymatlarining interpretatsiyasi¹

Silhouette qiymati (S(i))	Interpretatsiya
$S(i) \approx 1$	Obyekt o'z klasteri ichida zich joylashgan va boshqa klasterlardan sezilarli darajada uzoqda.
$S(i) \approx 0$	Obyekt ikki klaster orasidagi chegaraviy pozitsiyada joylashgan.
$S(i) < 0$	Obyekt o'z klasteriga nisbatan boshqa klasterga yaqinroq joylashgan bo'lishi mumkin.

Klaster tahlilining statistik ishonchligini baholash maqsadida Silhouette koeffitsienti qiymatlarining nazariy talqini ham tahlil qilindi. Mazkur koeffitsient obyektning o'z klasteri ichidagi ichki yaqinlik darajasi hamda boshqa klasterlardan ajralish darajasini birgalikda baholash imkonini beradi. Silhouette qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, klasterlash natijalari shunchalik aniq va barqaror hisoblanadi. Aksincha, manfiy qiymatlar ayrim obyektning boshqa klasterga yaqinroq joylashganini va klasterlashda qayta tasniflash ehtimoli mavjudligini anglatadi. Tadqiqotda Silhouette koeffitsienti qiymatlarining statistik talqini va klasterlash sifati mezonlari quyidagi jadval asosida tizimlashtirildi (2-jadval).

2-jadval
Silhouette koeffitsienti qiymatlarining statistik talqini va klasterlash sifati tavsifi²

Silhouette qiymati (S(i))	Matematik shart	Statistik talqin	Klasterlash sifati
$0,7 < S(i) \leq 1$	$a(i) \ll b(i)$	Obyekt o'z klasterida yuqori ichki yaqinlikka ega va boshqa klasterlardan sezilarli darajada ajralgan	Juda yaxshi ajralgan va barqaror klaster
$0,5 < S(i) \leq 0,7$	$a(i) < b(i)$	Obyekt o'z klasteriga mos keladi, ajralish darajasi yetarli	Yaxshi klasterlash
$0 < S(i) \leq 0,5$	$a(i) \approx b(i)$	Obyekt chegaraviy pozitsiyada joylashgan	O'rtacha ajralish
$S(i) < 0$	$a(i) > b(i)$	Obyekt boshqa klasterga yaqinroq bo'lishi mumkin	Ehtimoliy noto'g'ri klasterlash

Silhouette koeffitsienti qiymatlari mintaqalar o'rtasidagi strukturaviy farqlarning qanchalik aniq ajralganligini ifodalaydi. O'rtacha Silhouette koeffitsientining yuqori bo'lishi klaster ichidagi bir xillik darajasi kuchli ekanini hamda klasterlar o'rtasidagi tafovutlar statistik jihatdan sezilarli ekanini anglatadi. Bu holat shakllantirilgan ko'p o'lchovli klaster modelining empirik jihatdan asoslanganligini va mintaqaviy ta'lim siyosatini ishlab chiqishda analitik ishonchlikka ega ekanini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi ko'rsatkichlarining umumiy dinamikasi hamda mintaqalar kesimida kadrlar tayyorlash sifati darajasini baholash natijalari keltiriladi. Tahlil jarayonida dastlab respublika darajasidagi asosiy o'zgarishlar ko'rib chiqildi, keyinchalik mintaqalar bo'yicha tanlangan ko'rsatkichlarning deskriptiv xususiyatlari tahlil qilindi. Shundan so'ng ko'rsatkichlar Min–Max usuli yordamida normallashtirilib, teng vaznli agregatsiya asosida kompozit indeks shakllantirildi. Yakuniy bosqichda esa mintaqalar o'rtasidagi strukturaviy o'xshashlik va farqlarni aniqlash maqsadida ko'p o'lchovli klaster tahlili qo'llanildi.

Respublika darajasidagi ma'lumotlar 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sezilarli miqdoriy kengayish jarayoni kuzatilganini ko'rsatadi. 2010-yilda mamlakatda oliy ta'lim muassasalari soni 65 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 222 taga yetgan. Bu esa tahlil davrida oliy ta'lim muassasalari soni 3,4 baravarga oshganini anglatadi.

Talabalar soni bo'yicha o'sish sur'ati yanada yuqori bo'lgan. 2010-yilda respublika bo'yicha talabalar soni 274 520 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 1 432 810 nafarga yetgan. Demak, talabalar soni tahlil davrida 5,2 baravarga oshgan. Mazkur holat oliy ta'lim qamrovining sezilarli darajada kengayganini

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



yaqqol ko'rsatadi.

Qabul qilingan talabalar soni ham izchil o'sish dinamikasini namoyon etgan. 2010-yilda oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni 64 113 nafar bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 381 708 nafarni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichning qariyb 6 baravarga oshgani oliy ta'limga kirish imkoniyatlari sezilarli ravishda kengayganini bildiradi.

Biroq professor-o'qituvchilar sonining o'sish sur'ati talabalar soni o'sishiga nisbatan pastroq bo'lgan. 2010-yilda oliy ta'lim tizimida 23 021 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 49 633 nafarga yetgan. Bu ko'rsatkich 2,2 baravarga oshgan. Talabalar sonining 5,2 baravarga, professor-o'qituvchilar sonining esa 2,2 baravarga oshgani ta'lim jarayonida pedagogik yuklama masalasi dolzarblashganini ko'rsatadi.

Mazkur holat STR, ya'ni talaba-o'qituvchi nisbati dinamikasida ham namoyon bo'ladi. 2010-yilda bir professor-o'qituvchiga o'rtacha 11,92 nafar talaba to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 28,87 nafarga yetgan. Bu esa oliy ta'lim tizimida qamrov kengayishi bilan bir qatorda akademik resurslar bilan ta'minlanganlik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etayotganini anglatadi.

$$STR = \frac{\text{Talabalar soni}}{\text{Professor-o'qituvchilar soni}}$$

10 ming aholiga to'g'ri keluvchi talabalar soni ham sezilarli o'sgan. 2010-yilda bu ko'rsatkich 98,04 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 389,35 nafarga yetgan. Bu oliy ta'limning aholiga nisbatan qamrovi qariyb 4 baravarga oshganini bildiradi.

Bitiruvchilar soni 2010-yildagi 76 379 nafardan 2024-yilda 211 197 nafarga yetgan. Mazkur ko'rsatkich 2,8 baravarga oshgan bo'lsa-da, uning o'sish sur'ati talabalar soni o'sish sur'atidan pastroq bo'lgan. Bu esa kadrlar tayyorlash jarayonida qamrov kengayishi bilan natijaviylik ko'rsatkichlari o'rtasidagi mutanosiblikni alohida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Respublika darajasida oliy ta'lim tizimi asosiy ko'rsatkichlarining o'zgarishi, 2010–2024-yillar³

Ko'rsatkich	2010-yil	2024-yil	O'zgarish
OTMLar soni	65	222	3,4 baravar
Qabul qilingan talabalar soni	64113	381708	6,0 baravar
Talabalar soni	274520	1432810	5,2 baravar
Bitiruvchilar soni	76379	211197	2,8 baravar
O'qituvchilar soni	23021	49633	2,2 baravar
10 ming aholiga talabalar soni	98,04	389,35	4,0 baravar
STR, talaba-o'qituvchi nisbati	11,92	28,87	2,4 baravar

3-jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, 2010–2024-yillarda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida miqdoriy kengayish jarayoni yuqori sur'atlarda kechgan. Biroq ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari bir xil emas. Talabalar soni va qabul ko'rsatkichlari professor-o'qituvchilar soniga nisbatan sezilarli darajada tez o'sgan. Bu esa oliy ta'lim tizimida qamrov kengayishi bilan bir qatorda ta'lim sifati va akademik resurslar bilan ta'minlanganlik masalasini kompleks baholash zaruratini kuchaytiradi.

Deskriptiv tahlilda har bir ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha qiymat, minimum, maksimum, standart og'ish hamda variatsiya koeffitsiyenti hisoblandi. Variatsiya koeffitsiyenti ko'rsatkich qiymatlarining o'rtacha darajaga nisbatan qanchalik tarqoq joylashganini ifodalaydi va quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$CV = \frac{\sigma}{\bar{x}} \times 100\%$$

Bu yerda:

- CV— variatsiya koeffitsiyenti;
- σ — standart og'ish;
- \bar{x} — o'rtacha qiymat.

2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi mintaqalari kesimida kadrlar tayyorlash sifati ko'rsatkichlari bo'yicha deskriptiv statistika natijalari keltirilgan. Jadval ma'lumotlari mintaqalar o'rtasida oliy

ta'lim tizimi resurslari va natijaviy ko'rsatkichlarining sezilarli darajada differensialashganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori variatsiya OTMLar soni va talabalar soni ko'rsatkichlarida kuzatildi. Bu holat oliy ta'lim infratuzilmasi hamda ta'lim qamrovi mintaqalar bo'yicha notekis shakllanganini anglatadi. O'qituvchilar soni va 10 ming aholiga to'g'ri keluvchi talabalar soni bo'yicha ham yuqori tarqoqlik kuzatilgani inson kapitalini shakllantirish imkoniyatlari hududlar kesimida bir xil emasligini tasdiqlaydi (4-jadval).

4-jadval

Mintaqalar kesimida kadrlar tayyorlash sifati ko'rsatkichlari bo'yicha deskriptiv statistika (2010–2024-yillar, n = 210)⁴

Ko'rsatkich	O'rtacha qiymat	Minimum	Maksimum	Standart og'ish	Variatsiya koeffitsiyenti, %
OTMLar soni	7,93	1,00	98,00	13,86	174,68
O'qituvchilar soni	2152,80	293,00	18884,00	2882,66	133,90
10 ming aholiga talabalar soni	161,70	26,07	1773,77	216,80	134,07
Bitiruvchilar soni	6553,47	864,00	54645,00	8207,50	125,24
Talabalar soni	38606,52	3774,00	539368,00	62360,95	161,53
STR, talaba-o'qituvchi nisbati	17,23	9,39	42,51	7,35	42,66

4-jadval natijalari mintaqalar kesimida oliy ta'lim tizimi ko'rsatkichlari bir xil darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Eng yuqori tarqoqlik OTMLar soni bo'yicha kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 174,68% ni tashkil etdi. Bu oliy ta'lim muassasalari tarmog'ining mintaqalar bo'yicha nihoyatda notekis joylashganini anglatadi. OTMLar sonining minimum qiymati 1 ta, maksimum qiymati esa 98 tani tashkil etib, mintaqalar o'rtasidagi institutsional infratuzilma salohiyatida sezilarli tafovut mavjudligini tasdiqlaydi.

Talabalar soni bo'yicha ham yuqori darajadagi tafovut kuzatildi. Mazkur ko'rsatkichning o'rtacha qiymati 38 606,52 nafarni tashkil etgan bo'lsa, minimum qiymat 3 774 nafar, maksimum qiymat esa 539 368 nafarga teng bo'lgan. Variatsiya koeffitsiyentining 161,53% darajasida shakllanishi talabalar kontingenti mintaqalar bo'yicha juda notekis taqsimlanganini bildiradi. Bu holat oliy ta'lim qamrovining ayrim mintaqalarda yuqori, boshqalarida esa nisbatan past darajada rivojlanganini ko'rsatadi.

Maksimum va minimum qiymatlarning qaysi mintaqaga hamda qaysi yillarda kuzatilganini aniqlash deskriptiv tahlilni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi (5-jadval).

5-jadval

Asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha minimum va maksimum qiymatlar kuzatilgan mintaqalar hamda yillar⁵

Ko'rsatkich	Minimum qiymat	Minimum kuzatilgan intaqah va yil	Maksimum qiymat	Maksimum kuzatilgan intaqah va yil
OTMLar soni	1,00	Sirdaryo viloyati, 2010-yil	98,00	Toshkent shahri, 2024-yil
O'qituvchilar soni	293,00	Sirdaryo viloyati, 2010-yil	18884,00	Toshkent shahri, 2024-yil
10 ming aholiga talabalar soni	26,07	Toshkent viloyati, 2015-yil	1773,77	Toshkent shahri, 2024-yil
Bitiruvchilar soni	864,00	Sirdaryo viloyati, 2012-yil	54645,00	Toshkent shahri, 2024-yil
Talabalar soni	3774,00	Sirdaryo viloyati, 2015-yil	539368,00	Toshkent shahri, 2024-yil
STR, talaba-o'qituvchi nisbati	9,39	Samarqand viloyati, 2015-yil	42,51	Navoiy viloyati, 2023-yil

5-jadval natijalari 4-jadvalda aniqlangan mintaqalararo tafovutlarning manbasini yanada aniqroq yoritib beradi. Asosiy ko'rsatkichlarning aksariyati bo'yicha maksimum qiymatlar Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda. Jumladan, 2024-yilda Toshkent shahrida OTMLar soni 98 tani, professor-o'qituvchilar soni 18 884 nafarni, talabalar soni 539 368 nafarni, bitiruvchilar soni esa 54 645 nafarni tashkil etgan. Bu poytaxt

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi



mintaqasida oliy ta'lim infratuzilmasi, akademik salohiyat va talabalar kontingenti boshqa mintaqalarga nisbatan yuqori darajada jamlanganini anglatadi.

Minimum qiymatlar esa ko'proq Sirdaryo viloyati hissasiga to'g'ri kelgan. Xususan, OTMLar sonining eng past qiymati Sirdaryo viloyatida 2010-yilda 1 tani, o'qituvchilar sonining eng past qiymati 2010-yilda 293 nafarni, bitiruvchilar sonining eng past qiymati 2012-yilda 864 nafarni, talabalar sonining eng past qiymati esa 2015-yilda 3 774 nafarni tashkil etgan. Bu ayrim mintaqalarda oliy ta'lim infratuzilmasi va kadrlar tayyorlash salohiyati nisbatan cheklanganligini ko'rsatadi.

STR ko'rsatkichi esa teskari yo'nalishli indikator sifatida talqin qilinib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha teskari Min–Max transformatsiyasi qo'llanildi. Yakuniy bosqichda normallashtirilgan oltita ko'rsatkichning teng vaznli arifmetik o'rtachasi asosida kadrlar tayyorlash sifati bo'yicha kompozit indeks hisoblandi (6-jadval).

6-jadval

Mintaqalar kesimida normallashtirilgan ko'rsatkichlar va kompozit indeks natijalari⁶

Mintaqa	OTMLar soni	O'qituvchilar soni	10 ming aholiga talabalar	Bitiruvchilar soni	Talabalar soni	STR	Kompozit indeks, Qi	Reyting
Toshkent shahri	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	0,7769	0,9628	1
Samarqand viloyati	0,1521	0,2334	0,0456	0,2055	0,1871	1,0000	0,3039	2
Andijon viloyati	0,0821	0,1347	0,0137	0,1220	0,1080	0,9499	0,2351	3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,0808	0,1126	0,1173	0,1398	0,1131	0,6242	0,1979	4
Buxoro viloyati	0,0794	0,1098	0,1208	0,1107	0,1192	0,6242	0,1940	5
Farg'ona viloyati	0,1009	0,1241	0,0233	0,1809	0,1529	0,3131	0,1492	6
Namangan viloyati	0,0471	0,0767	0,0000	0,0951	0,0795	0,5921	0,1484	7
Jizzax viloyati	0,0256	0,0518	0,0732	0,0569	0,0474	0,6003	0,1425	8
Xorazm viloyati	0,0310	0,0515	0,0356	0,0598	0,0591	0,5076	0,1241	9
Qashqadaryo viloyati	0,0592	0,0780	0,0015	0,1051	0,1033	0,3090	0,1094	10
Toshkent viloyati	0,0700	0,0587	0,0106	0,0811	0,0967	0,1685	0,0809	11
Surxondaryo viloyati	0,0458	0,0492	0,0016	0,0631	0,0748	0,2493	0,0806	12
Sirdaryo viloyati	0,0000	0,0000	0,0385	0,0000	0,0000	0,3651	0,0673	13
Navoiy viloyati	0,0162	0,0236	0,1209	0,0460	0,0369	0,0000	0,0406	14

6-jadval natijalari mintaqalar kesimida kadrlar tayyorlash sifati darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Kompozit indeks qiymatlari mintaqalarning tanlangan ko'rsatkichlar majmuasi asosidagi nisbiy integral bahosini ifodalaydi. Mazkur indeks mutlaq sifat darajasini emas, balki 2010–2024-yillar davomida shakllangan o'rtacha ko'rsatkichlar asosida mintaqalarning bir-biriga nisbatan egallagan pozitsiyasini aks ettiradi.

Klasterlar sonini aniqlash jarayonida Elbow usuli qo'llanilib, klasterlar soni dan gacha o'zgartirildi hamda har bir holat uchun klaster ichki kvadrat og'ishlar yig'indisi — WCSS (*Within-Cluster Sum of Squares*) qiymatlari hisoblandi.

$$WCSS = \sum_{k=1}^K \sum_{i \in C_k} (x_i - \mu_k)^2$$

Bu yerda:

- C_k — k-klaster tarkibidagi obyektlar to'plami;
- x_i — i-obyekt qiymati;
- μ_k — k-klasterning markaziy nuqtasi.

Shuningdek, har bir muqobil guruhlanish varianti bo'yicha klaster ichidagi obyektlarning o'zaro yaqinligi

hamda boshqa klasterlardan ajralish darajasini baholash maqsadida Silhouette koeffitsienti ham aniqlandi. Mazkur yondashuv optimal klasterlar sonini statistik jihatdan asoslash va klasterlash natijalarining barqarorligini tekshirish imkonini berdi (7-jadval).

7-jadval

Klasterlar sonini tanlash bo'yicha WCSS va Silhouette koeffitsienti natijalari⁷

Klasterlar soni, (k)	WCSS	Silhouette koeffitsienti
2	1,166830	0,758978
3	0,447561	0,440874
4	0,198912	0,482291
5	0,118006	0,438402
6	0,081468	0,373393

7-jadval natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, klasterlar soni ortishi bilan WCSS qiymati izchil kamayib borgan. Ayniqsa, dan ga o'tganda WCSS qiymati 1,166830 dan 0,447561 gacha keskin pasaygan. Ushbu bosqichdagi kamayish miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$1.166830 - 0.447561 = 0.719269$$

Keyingi bosqichlarda WCSS qiymati pasayishda davom etgan bo'lsa-da, kamayish sur'ati sezilarli darajada qisqargan. Jumladan, $k=3$ dan $k=4$ ga o'tganda WCSS kamayishi 0,248649 ni tashkil etgan:

$$0.447561 - 0.198912 = 0.248649$$

dan ga o'tganda esa kamayish miqdori 0,080906 ga teng bo'lgan:

$$0.198912 - 0.118006 = 0.080906$$

Mazkur holat Elbow usuli nuqtai nazaridan $k=3$ atrofida muhim burilish nuqtasi mavjudligini ko'rsatadi.

Shu sababli yakuniy klasterlar sonini tanlashda faqat Silhouette koeffitsientining maksimal qiymati emas, balki Elbow usuli natijalari, guruhlarining mazmuniy talqini, mintaqaviy tipologiyani shakllantirish imkoniyati hamda tadqiqotning amaliy maqsadi birgalikda hisobga olindi. Natijada klasterli model yakuniy yechim sifatida qabul qilindi.

Mazkur model Toshkent shahrini oliy ta'lim salohiyati yuqori darajada konsratsiyalashgan alohida guruh sifatida ajratish bilan bir qatorda, qolgan mintaqalarni ham resurs salohiyati, ta'lim qamrovi va natijaviylik profillari bo'yicha ikki mazmunli guruhga tipologiyalash imkonini beradi.

Uch klasterli yechimda mintaqalar quyidagi guruhlariga ajratildi (8-jadval).

8-jadval

$k = 3$ modelida klasterlar bo'yicha WCSS hissasi⁸

Klaster	Klaster tarkibi	WCSS hissasi
1-klaster	Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Xorazm	0,299774
2-klaster	Toshkent shahri	0,000000
3-klaster	Farg'ona, Navoiy, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyati	0,147787
Jami		0,447561

8-jadval natijalari $k=3$ holatida umumiy WCSS qiymati klasterlar bo'yicha ichki kvadrat og'ishlar yig'indisi orqali shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, umumiy WCSS quyidagicha aniqlangan:

$$WCSS_{k=3} = 0.299774 + 0.000000 + 0.147787 = 0.447561$$

2-klaster tarkibiga faqat Toshkent shahri kirganligi sababli, ushbu klaster bo'yicha WCSS hissasi 0,000000 ga teng bo'ldi. Chunki bitta obyektli klasterda obyektning o'z klaster markazidan masofasi nolga teng bo'ladi.

Klasterlash natijasida mintaqalar uchta guruhga ajratildi. Birinchi klaster oliy ta'lim salohiyati yuqori darajada konsratsiyalashgan mintaqani, ikkinchi klaster resurs, qamrov va natijaviylik ko'rsatkichlari bo'yicha nisbatan muvozanatli o'rta guruhni, uchinchi klaster esa tanlangan ko'rsatkichlar bo'yicha nisbatan cheklangan pozitsiyaga ega mintaqalarni birlashtirdi (9-jadval).

7 Muallif ishlanmasi

8 Muallif ishlanmasi



9-jadval
K-means klasterlash natijalari asosida mintaqalarning guruhlanishi⁹

Klaster	Mintaqalar	Klaster tavsifi
1-klaster	Toshkent shahri	Oliy ta'lim infratuzilmasi va akademik resurslar yuqori darajada konsentratsiyalashgan mintaq
2-klaster	Samarqand viloyati, Andijon viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro viloyati, Namangan viloyati, Jizzax viloyati, Xorazm viloyati	Nisbatan barqaror, ammo yetakchi mintaqadan ancha past ko'rsatkichlarga ega o'rta darajadagi mintaqalar, ya'ni resurs, qamrov va natijaviylik ko'rsatkichlari bo'yicha nisbatan muvozanatli o'rta guruh
3-klaster	Farg'ona viloyati, Qashqadaryo viloyati, Toshkent viloyati, Surxondaryo viloyati, Sirdaryo viloyati, Navoiy viloyati	Resurs salohiyati va natijaviylik ko'rsatkichlari nisbatan cheklangan mintaqalar, ya'ni kadrlar tayyorlash sifati bilan bog'liq tanlangan ko'rsatkichlar bo'yicha nisbatan cheklangan mintaqalar guruhi

9-jadval natijalari Toshkent shahri boshqa mintaqalardan keskin farqlanishini ko'rsatadi. Mazkur mintaqa oliy ta'lim muassasalari soni, professor-o'qituvchilar salohiyati, talabalar kontingenti, bitiruvchilar hajmi hamda aholi soniga nisbatan ta'lim qamrovi ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli ustunlikka ega bo'lgani sababli alohida klaster sifatida ajralib chiqdi. Bu holat poytaxt mintaqasida oliy ta'lim resurslari va natijaviy ko'rsatkichlar yuqori darajada konsentratsiyalashganini anglatadi.

Mintaqalarning qaysi klasterlarga mansubligini aniqlash guruhlanishning umumiy tasvirini beradi. Biroq klasterlarning qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha bir-biridan farqlanishini chuqurroq izohlash uchun klaster markazlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda har bir klaster bo'yicha normallashtirilgan ko'rsatkichlarning o'rtacha markaziy qiymatlari hisoblandi (10-jadval).

10-jadval
K-means klasterlash natijalari bo'yicha klaster markazlari¹⁰

Klaster	OTMlar soni	O'qituvchilar soni	10 ming aholiga talabalar	Bitiruvchilar soni	Talabalar soni	STR	Klaster bo'yicha o'rtacha kompozit indeks
1-klaster	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	0,7769	0,9628
2-klaster	0,0711	0,1101	0,0580	0,1128	0,1019	0,6998	0,1923
3-klaster	0,0487	0,0556	0,0327	0,0794	0,0774	0,2341	0,0880

10-jadval natijalari klasterlar o'rtasidagi tarkibiy farqlarni aniq namoyon etadi. 1-klaster tarkibiga faqat Toshkent shahri kirganligi sababli uning markaziy qiymatlari ushbu mintaqaning normallashtirilgan ko'rsatkichlariga teng bo'ldi. OTMlar soni, professor-o'qituvchilar soni, 10 ming aholiga to'g'ri keluvchi talabalar soni, bitiruvchilar soni hamda talabalar soni bo'yicha klaster markazlari 1,0000 qiymatni tashkil etdi. STR ko'rsatkichi bo'yicha markaziy qiymat esa 0,7769 ga teng bo'ldi.

Mazkur klasterning o'rtacha kompozit indeksi 0,9628 ni tashkil etib, u boshqa klasterlardan sezilarli tafovut bilan ajralib turadi. Bu holat Toshkent shahrida oliy ta'lim infratuzilmasi, akademik resurslar va ta'lim qamrovi yuqori darajada konsentratsiyalashganini hamda mintaqalararo differensiyatsiyada dominant pozitsiyani egallashini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi mintaqalari kesimida kadrlar tayyorlash sifati darajasi (2010–2024-yillar)

9 Muallif ishlanmasi

10 Muallif ishlanmasi

ko'p o'lchovli statistik yondashuv asosida kompleks baholandi. Oliy ta'lim tizimining resurs salohiyati, ta'lim qamrovi va natijaviylik jihatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi shakllantirilib, ular Min–Max usuli yordamida normallashtirildi hamda teng vaznli agregatsiya asosida kompozit indeks hisoblandi. Mazkur indeks mintaqalarning tanlangan ko'rsatkichlar majmuasi bo'yicha nisbiy integral pozitsiyasini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari mintaqalar o'rtasida kadrlar tayyorlash sifati bilan bog'liq ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Kompozit indeks va klasterlash natijalari oliy ta'lim salohiyati barcha mintaqalarda bir xil shakllanmaganini, ayrim hududlarda resurslar, qamrov va natijaviylik ko'rsatkichlari nisbatan yuqori darajada konsentratsiyalashganini, boshqa hududlarda esa ular cheklanganroq darajada rivojlanganini tasdiqladi. Ko'p o'lchovli klaster tahlili natijasida mintaqalar uchta tipologik guruhga ajratildi va bu yondashuv mintaqalarni oddiy reyting asosida emas, balki ko'p o'lchovli sifat profili asosida tipologiyalash imkonini berdi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi shundan iboratki, mintaqalar kesimida kadrlar tayyorlash sifati darajasini baholash uchun kompozit indeks va ko'p o'lchovli klaster tahlilini integratsiyalashgan metodologik yondashuv sifatida qo'llash ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur yondashuv nafaqat mintaqalarning umumiy nisbiy pozitsiyasini aniqlash, balki ularning resurs salohiyati, ta'lim qamrovi, natijaviylik hamda pedagogik yuklama ko'rsatkichlari bo'yicha ichki strukturaviy farqlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa mintaqaviy oliy ta'lim siyosatini dalillarga asoslangan holda shakllantirish uchun muhim analitik asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. (2018). *The Human Capital Project*. Washington, DC: World Bank.
2. World Bank. (2020). *Human Capital Index 2020 Update*. Washington, DC: World Bank.
3. UNESCO Institute for Statistics. (2024). *Global Education Monitoring Indicators*. Montreal: UIS.
4. OECD. (2022). *OECD Economic Outlook*, Volume 2022, Issue 2, No. 112. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/f6da2159-en>
5. International Labour Organization. (2022). *Global Employment Trends for Youth*. Geneva: ILO.
6. OECD. (2023). *Education at a Glance 2023: OECD Indicators*. Paris: OECD Publishing.
7. OECD. (2023). *Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide*. Paris: OECD Publishing.
8. OECD. (2023). *OECD Regional Outlook 2023: The Longstanding Geography of Inequalities*. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/92cd40a0-en>
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Ochiq ma'lumotlar axborot tizimi, 2010–2024-yillar.
10. Eric A. Hanushek va Ludger Woessmann. (2020). "The Economic Impacts of Learning Losses". *OECD Education Working Papers*, No. 225. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/21908d74-en>
11. Robert J. Barro. (2013). "Education and Economic Growth". *Annals of Economics and Finance*, 14(2), 301–328.
12. Eric A. Hanushek va Ludger Woessmann. (2020). "Education, Knowledge Capital, and Economic Growth". In: Bradley, S., Green, C. (Eds.), *The Economics of Education* (2nd ed., pp. 171–182). Academic Press. <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-815391-8.00014-8>
13. James J. Heckman. (2006). "Skill Formation and the Economics of Investing in Disadvantaged Children". *Science*, 312(5782), 1900–1902. <http://dx.doi.org/10.1126/science.1128898>
14. Andrés Rodríguez-Pose. (2018). "The Revenge of the Places That Don't Matter". *Cambridge Journal of Regions, Economy and Society*, 11(1), 189–209. <https://doi.org/10.1093/cjres/rsx024>
15. Ron Martin, Peter Sunley, Ben Gardiner va Peter Tyler. (2016). "How Regions React to Recessions: Resilience and the Role of Economic Structure". *Regional Studies*, 50(4), 561–585. <https://doi.org/10.1080/00343404.2015.1136410>
16. Simon Marginson. (2016). "High Participation Systems of Higher Education". *The Journal of Higher Education*, 87(2), 243–271. <https://doi.org/10.1080/00221546.2016.11777401>
17. Simon Marginson. (2018). "Global Trends in Higher Education Financing: The United Kingdom". *International Journal of Educational Development*, 58(C), 26–36.
18. Ellen Hazelkorn. (2015). *Rankings and the Reshaping of Higher Education*. London: Palgrave Macmillan. <https://doi.org/10.1057/9781137446671>
19. Trevor Hastie, Robert Tibshirani va Jerome Friedman. (2017). *The Elements of Statistical Learning: Data Mining, Inference, and Prediction* (2nd ed.). Berlin: Springer. Section: *k-means clustering*. <https://hastie.su.domains/ElemStatLearn/download.html>
20. Salvatore Greco, Alessio Ishizaka, Maria Tasiou va Giuseppe Torrasi. (2019). "On the Methodological Framework of Composite Indices: A Review of the Issues of Weighting, Aggregation, and Robustness". *Social Indicators Research*, 141(1), 61–94. <https://doi.org/10.1007/s11205-017-1832-9>
21. Gareth James, Daniel Witten, Trevor Hastie va Robert Tibshirani. (2021). *An Introduction to Statistical Learning: With Applications in R* (2nd ed.). Springer. Chapter 10 — *Unsupervised Learning*.
22. Pang-Ning Tan, Michael Steinbach va Vipin Kumar. (2019). *Introduction to Data Mining* (2nd ed.). Pearson.
23. Peter J. Rousseeuw. (2016). "Silhouettes: A Graphical Aid to the Interpretation and Validation of Cluster Analysis". *Computational and Applied Mathematics*, 20, 53–65.
24. Jiawei Han, Micheline Kamber va Jian Pei. (2012). *Data Mining: Concepts and Techniques*. Morgan Kaufmann.
25. Zariyova Mukaddas Djumayozovna. (2024). "Yuqori malakali kadrlar tayyorlash samaradorligi iqtisodiy-statistik tahlili". *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2(11).

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100